



RAQAMLI BANKLARDA JALB QILINGAN RESURSLAR DAROMADLILIGI HOLATINI TAHLIL QILISH VA UNI OSHIRISH YO'LLARI

ANALYSIS OF THE PROFITABILITY OF MOBILIZED RESOURCES IN DIGITAL BANKS AND WAYS TO INCREASE IT

¹Jumayev Muzaffar
Mahmud o'g'li

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, "Bank ishi" kafedrası
katta o'qituvchisi. **ORCID:** 0009-0004-0329-7687

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Mazkur maqolada raqamli banklar faoliyatida jalb qilingan resurslar daromadliligi holati va unga ta'sir etuvchi omillar empirik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda "TBC Bank" AJ va "ANOR BANK" AJ misolida bank majburiyatlari tarkibi, depozitlar va boshqa jalb qilingan mablag'lar dinamikasi hamda resurs bazasi diversifikatsiyasi darajasi o'rganildi. Tahlil natijalari raqamli banklar resurs bazasining asosan mijozlar depozitlari hisobiga shakllanayotganini, so'nggi yillarda banklararo va xalqaro moliyaviy resurslar ulushining ortib borayotganini ko'rsatdi. Shuningdek, jalb qilingan mablag'lar tarkibida qisqa muddatli resurslar ulushining yuqoriligi resurslar daromadliligi va likvidlikni boshqarish samaradorligiga ta'sir etishi asoslab berildi. Tadqiqot yakunida raqamli banklarda jalb qilingan resurslar daromadliligini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Eng. - This article analyzes the profitability of attracted resources in digital banks and the factors influencing it based on empirical data. The study examines the structure of bank liabilities, the dynamics of deposits and other attracted funds, and the level of resource base diversification using the example of TBC Bank JSC and ANOR BANK JSC. The results show that the resource base of digital banks is mainly formed by customer deposits, while the share of interbank and international financial resources has increased in recent years. It is substantiated that the high share of short-term resources in the structure of attracted funds affects resource profitability and the efficiency of liquidity management. The study proposes scientifically grounded recommendations for improving the profitability of attracted resources in digital banks.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ raqamli banklar, resurs bazasi, jalb qilingan mablag'lar, depozitlar, daromadlilik, banklararo resurslar, diversifikatsiya, bank samaradorligi.

❖ digital banks, resource base, attracted funds, deposits, profitability, interbank resources, diversification, bank efficiency.

Kirish.

So'nggi yillarda jahon moliya tizimida raqamli banklar ulushining ortishi bank resurs bazasi va uning daromadliligini shakllantirish masalasini dolzarb ilmiy muammolardan biriga aylantirdi. Shu bilan birga, global bank sektorida daromadning asosiy qismi

cheklangan miqdordagi banklar hissasiga to'g'ri kelmoqda: McKinsey tadqiqotlariga ko'ra, "banklarning atigi 14 foizi butun bank tizimidagi iqtisodiy foydaning 80 foizini shakllantirmoqda" [1]. Mazkur holat bank resurslaridan foydalanish samaradorligi va jalb qilingan mablag'lar daromadliligi banklar

raqobatbardoshligining asosiy omillaridan biri ekanligini ko'rsatadi.

Xalqaro amaliyotda raqamli banklar asosan arzon va tez jalb qilinadigan depozit resurslariga tayangan holda faoliyat yuritadi. Biroq jalb qilingan mablag'lar hajmining ortishi har doim ham bank daromadliligi oshishiga olib kelmaydi. The Asian Banker tahlillariga ko'ra, "dunyodagi eng yirik 100 ta raqamli bankning atigi 61 foizi barqaror foyda bilan ishlamoqda" [2]. Bu esa raqamli banklar uchun jalb qilingan resurslarni yuqori daromadli aktivlarga samarali joylashtirish va foiz marjasini ta'minlash muammosi hanuz dolzarb ekanligini anglatadi. Shunday qilib, raqamli banklarda jalb qilingan resurslar daromadliligi bank faoliyati samaradorligini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston bank tizimida ham so'nggi yillarda raqamlashtirish jarayonlari jadallashib, raqamli banklar faoliyati kengayib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlariga ko'ra, "2024-yil boshida tijorat banklari tomonidan jalb qilingan jami depozitlar hajmi 241,7 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yil boshiga kelib ushbu ko'rsatkich 310,2 trln so'mga yetgan" [3]. Bu banklar resurs bazasining tez sur'atlarda kengayib borayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, "bank tizimi aktivlari 2024-yilda 751,7 trln. so'mni tashkil etgan bo'lib, resurslardan samarali foydalanish banklar daromadliligini ta'minlashda muhim omil ekanligini tasdiqlaydi" [3].

Shu bilan birga, jalb qilingan resurslar tarkibining asosan depozit mablag'lariga tayanishi, kredit portfelining yetarli darajada diversifikatsiya qilinmaganligi hamda foiz marjasining nisbatan cheklanganligi raqamli banklarda jalb qilingan resurslar daromadliligini oshirish masalasini murakkablashtirmoqda. Ayrim hollarda resurs bazasi hajmining tez o'sishi bilan birga daromadlilik darajasining mos ravishda oshmasligi banklar rentabelligiga ta'sir etuvchi

muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, raqamli banklarda jalb qilingan resurslar daromadliligi holatini empirik ma'lumotlar asosida tahlil qilish, resurslardan foydalanish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash hamda ularni oshirish yo'llarini ishlab chiqish O'zbekiston bank tizimi barqarorligini ta'minlash va raqamli banklar faoliyati samaradorligini oshirishning muhim ilmiy-amaliy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Mazkur tadqiqot mavzusining nazariy va uslubiy asoslarini yoritishda banklar resurs bazasi va uning daromadliligini oshirish masalalari bo'yicha xorijiy hamda mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois quyida jalb qilingan resurslar daromadliligini ta'minlashga oid ilmiy qarashlar va yondashuvlar tahlil qilinadi.

Bank resurslari daromadliligi va ularning samaradorligini baholash masalasi xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Xususan, F. Mishkin bank faoliyatining barqarorligi ko'p jihatdan jalb qilingan resurslarning qiymati va ularni daromad keltiruvchi aktivlarga joylashtirish samaradorligiga bog'liqligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, "banklar daromadliligining asosiy manbai foiz marjasi bo'lib, u jalb qilingan mablag'lar qiymati va joylashtirilgan aktivlar rentabelligi o'rtasidagi farq orqali shakllanadi" [4].

P. Rose va S. Hudgins tijorat banklari faoliyatini boshqarish bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida bank resurs bazasi tarkibi daromadlilik darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatishini asoslab bergan. Ularning ta'kidlashicha, "arzon depozit resurslarining ulushi yuqori bo'lgan banklarda sof foiz marjasi yuqori shakllanadi, biroq ushbu mablag'larni samarali joylashtirish mexanizmlari yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan bo'lsa, bank

daromadliligi pasayishi mumkin" [5].

Shuningdek, R. Levine banklar moliyaviy vositachilik funksiyasini samarali bajarishi uchun jalb qilingan mablag'larning daromadliligini oshirish muhimligini qayd etadi. Uning ilmiy tadqiqotlarida "banklar tomonidan jalb qilingan resurslar iqtisodiyotning real sektoriga samarali yo'naltirilgan taqdirdagina banklar rentabelligi va moliyaviy barqarorligi ta'minlanishi asoslab berilgan" [6].

So'nggi yillarda raqamli banklar faoliyati doirasida olib borilgan tadqiqotlarda ham jalb qilingan resurslar daromadliligi masalasi alohida o'rin egallamoqda. Boston Consulting Group ekspertlari "raqamli banklar daromadliligi ko'p jihatdan resurs bazasi tarkibi va aktiv operatsiyalar samaradorligiga bog'liqligini ta'kidlab, jalb qilingan mablag'larni yuqori daromadli aktivlarga joylashtirish mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini qayd etadi" [7].

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan ham tijorat banklari resurs bazasi va uning daromadliligini oshirish masalalari keng tadqiq etilgan. Sh. Abdullayeva bank resurs bazasi bank faoliyatining moliyaviy asosi hisoblanib, jalb qilingan mablag'lardan samarali foydalanish bank daromadliligi va likvidligini ta'minlashda muhim omil ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, "banklar resurs bazasining barqarorligi va arzonligi bank

foydasining o'sishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi" [8].

N. Jo'rayev tijorat banklari resurs bazasini shakllantirish va undan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida "depozit siyosatini takomillashtirish va resurslarni diversifikatsiya qilish bank daromadliligini oshirishning asosiy yo'nalishlaridan biri ekanligini asoslab beradi" [9].

Umuman olganda, xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari tahlili shuni ko'rsatadiki, banklar tomonidan jalb qilingan resurslar daromadliligi banklar moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlovchi muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Biroq raqamli banklar faoliyatida ushbu masalani kompleks yondashuv asosida o'rganish hamda empirik ma'lumotlar asosida tahlil qilish zarurati mavjud.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda raqamli banklarda jalb qilingan resurslar daromadliligi holatini baholashda tizimli va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida "TBC Bank" AJ va "ANOR BANK" AJning 2020-2024-yillardagi moliyaviy hisobotlari asosida majburiyatlar tarkibi, depozitlar va boshqa jalb qilingan mablag'lar dinamikasi hamda ularning daromadlilikka ta'siri empirik jihatdan o'rganildi.

1-jadval

"TBC Bank" AJ majburiyatlari tarkibida jalb qilingan mablag'lar [10], (mlrd. so'mda)

Ko'rsatkichlar	31.12.2020	31.12.2021	31.12.2022	31.12.2023	31.12.2024
Mijozlardan jalb qilingan mablag'lar (depozitlar)	1,07	713,2	1 389,5	2 674,6	4 980,0
Boshqa banklar mablag'lari	-	-	-	100,2	333,3
Chiqarilgan qarz majburiyatlari	-	-	-	-	167,0
Jalb qilingan boshqa qarz mablag'lari	-	-	28,0	421,6	1 932,8
Lizing majburiyatlari	7,3	30,3	33,7	22,9	55,1
Boshqa majburiyatlar	6,6	20,7	30,8	66,1	178,9

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2020-2024-yillar davomida "TBC Bank" AJ majburiyatlari tarkibida jalb qilingan

mablag'lar hajmi izchil o'sish tendensiyasini namoyon etgan. Xususan, mijozlardan jalb qilingan mablag'lar (depozitlar) 2020-yildagi

1,07 mlrd. soʻmdan 2024-yilda 4 980,0 mlrd. soʻmga yetib, bank resurs bazasining asosiy va barqaror manbai sifatida shakllangan. Shu bilan birga, 2023–2024-yillardan boshlab boshqa banklar mablagʻlari, chiqarilgan qarz majburiyatlari hamda jalb qilingan boshqa qarz mablagʻlari hajmining keskin oshishi bank resurs bazasini diversifikatsiya qilish jarayoni faollashganini koʻrsatadi. Ayniqsa, jalb qilingan boshqa qarz mablagʻlarining 2022-yildagi 28,0 mlrd. soʻmdan 2024-yilda 1 932,8 mlrd.

soʻmga yetishi bank tomonidan xalqaro moliya institutlari va qarz instrumentlaridan faol foydalanilayotganini anglatadi. Umuman olganda, tahlil natijalari bank majburiyatlari tarkibida depozit mablagʻlari yetakchi oʻrinda qolayotgan boʻlsa-da, soʻnggi yillarda qarz resurslari ulushining ortishi resurs bazasi diversifikatsiyasi kuchayib borayotganini va jalb qilingan mablagʻlardan foydalanish imkoniyatlari kengayganini koʻrsatadi.

2-jadval

"TBC Bank" AJ jalb qilingan boshqa qarz mablagʻlari tarkibi [10]

Mablagʻ manbasi	2023-yil (mln. AQSh doll.)	2024-yil (mln. AQSh doll.)	Izoh
Niderlandiya rivojlanish moliya jamgʻarmasi (FMO)	14,3	30,7	UZSda nominatsiya qilingan, uzoq muddatli resurs
ResponsAbility Investments AG	5,0	25,4	UZSda nominatsiya qilingan, 2028 yilgacha
TBC Bank Group PLC	15,1	30,7	Guruh ichki moliyalashtirish
Global Gender-Smart Fund	–	10,1	2024-yilda jalb qilingan
BlueOrchard Microfinance Fund	–	26,0	2024-yilda jalb qilingan
Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (EBRD)	–	5,0	2024-yilda jalb qilingan
Jami	34,4	127,9	2024-yilda keskin oshgan

Jadval maʼlumotlariga koʻra, 2023–2024-yillar davomida "TBC Bank" AJ tomonidan jalb qilingan boshqa qarz mablagʻlari hajmi sezilarli darajada oshib, 34,4 mln AQSh dollaridan 2024-yilda 127,9 mln. AQSh dollariga yetgan. Ushbu oʻsishda asosiy ulush xalqaro moliya institutlari va investitsiya fondlaridan jalb qilingan uzoq muddatli resurslar hissasiga toʻgʻri keladi. Xususan, FMO, ResponsAbility Investments hamda TBC Bank Group mablagʻlarining ortishi bank resurs bazasining barqaror va nisbatan arzon manbalar hisobiga kengayganini

koʻrsatadi. 2024-yilda Global Gender-Smart Fund, BlueOrchard Microfinance Fund va Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki mablagʻlarining jalb qilinishi bankning xalqaro moliya bozorlaridagi faolligi oshganini hamda resurs bazasini diversifikatsiya qilish strategiyasi kuchayganini anglatadi. Umuman olganda, jalb qilingan boshqa qarz mablagʻlari hajmining keskin ortishi bank kreditlash salohiyatini kengaytirish va resurslar daromadlilikini oshirish uchun muhim moliyaviy asos yaratmoqda.

3-jadval

"TBC Bank" AJ boshqa banklardan jalb qilingan mablagʻlar tarkibi [10] (mlrd. soʻmda)

Bank nomi	2023-yil	2024-yil
Apex bank	30,0	–
Octobank	30,0	–
Ipak Yoʻli banki	–	50,0
Mikrokreditbank	–	181,5
Jami	60,0	231,5

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, "TBC Bank" AJ tomonidan boshqa banklardan jalb qilingan mablag'lar hajmi 2023-yildagi 60,0 mlrd. so'mdan 2024-yilda 231,5 mlrd. so'mga yetib, qariyb 4 baravar oshgan. 2023-yilda banklararo mablag'lar asosan Apex bank va Octobankdan jalb qilingan bo'lsa, 2024-yilda resurslar tarkibi sezilarli darajada o'zgarib, Ipak Yo'li banki va Mikro kreditbank mablag'lari ustunlik qilgan. Ayniqsa, Mikro kreditbankdan jalb qilingan 181,5 mlrd. so'mlik resurs banklararo moliya bozoridan

yirik hajmda mablag' jalb etilganini ko'rsatadi. Ushbu tendensiya bank tomonidan qisqa muddatli likvidlikni ta'minlash va kreditlash hajmini kengaytirish maqsadida banklararo resurslardan faol foydalanilayotganini anglatadi. Umuman olganda, boshqa banklardan jalb qilingan mablag'lar hajmining ortishi bank resurs bazasi diversifikatsiyasi kuchayganini va moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlari kengayganini ko'rsatadi.

4-jadval

"ANOR BANK" AJ majburiyatlari tarkibi [11], (mlrd. so'mda)

Ko'rsatkichlar	31.12.2020	31.12.2021	31.12.2022	31.12.2023	31.12.2024
Kredit tashkilotlari mablag'lari	-	61,0	62,7	249,4	4 500,0
Mijozlar mablag'lari	4,8	864,5	3 067,7	3 688,3	8 742,5
Subordinatsiyalangan qarzar	-	-	-	41,3	11,5
Ijara majburiyatlari	-	-	-	-	12,4
Boshqa majburiyatlar	0,7	7,9	25,4	54,9	34,5
Jami majburiyatlar	5,6	933,5	3 155,8	3 795,1	8 905,3

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2020-2024-yillar davomida "ANOR BANK" AJ majburiyatlari hajmi sezilarli darajada oshib, 5,6 mlrd. so'mdan 2024-yilda 8 905,3 mlrd. so'mga yetgan. Majburiyatlar tarkibida asosiy ulush mijozlar mablag'lariga to'g'ri kelib, ular 2020-yildagi 4,8 mlrd. so'mdan 2024-yilda 8 742,5 mlrd. so'mga yetib, bank resurs bazasining yetakchi manbai sifatida shakllangan. Shu bilan birga, 2023-2024-yillarda kredit tashkilotlari mablag'larining keskin oshib, 4 500,0 mlrd.

so'mga yetishi bank tomonidan banklararo va tashqi qarz resurslaridan faol foydalanilayotganini ko'rsatadi. Boshqa majburiyatlar va subordinatsiyalangan qarzar ulushining nisbatan pastligi bank majburiyatlari tarkibida depozit resurslari ustunligini saqlab qolayotganini anglatadi. Umuman olganda, majburiyatlar hajmining tez sur'atlarda o'sishi bank resurs bazasi kengayib borayotganini va kreditlash operatsiyalarini moliyalashtirish imkoniyatlari ortib borayotganini ko'rsatadi.

5-jadval

"ANOR BANK" AJ kredit tashkilotlari mablag'lari tarkibi [11], (mlrd. so'mda)

Ko'rsatkichlar	31.12.2021	31.12.2022	31.12.2023	31.12.2024
Xorijiy banklarning qisqa muddatli depozitlari	-	62,7	-	-
Mahalliy banklarning qisqa muddatli depozitlari	61,0	-	249,4	4 500,0
Kredit tashkilotlari mablag'lari jami	61,0	62,7	249,4	4 500,0

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2021-2024-yillar davomida "ANOR BANK" AJ tomonidan kredit tashkilotlaridan jalb qilingan mablag'lar hajmi keskin o'sish tendensiyasini namoyon etgan. Xususan, 2021-yilda 61,0 mlrd.

so'mni tashkil etgan banklararo resurslar 2024-yilda 4 500,0 mlrd. so'mga yetib, qariyb 70 baravar oshgan. 2022-yilda xorijiy banklarning qisqa muddatli depozitlari jalb etilgan bo'lsa, keyingi yillarda asosan mahalliy

banklarning qisqa muddatli depozitlari hisobiga resurs bazasi kengaygan. Ayniqsa, 2024-yilda mahalliy banklar mablag'larining keskin ortishi bank tomonidan banklararo moliya bozorida faol foydalanilayotganini hamda qisqa muddatli likvidlikni ta'minlash va kreditlash hajmini kengaytirish maqsadida jalb qilingan resurslar ulushi oshganini ko'rsatadi. Umuman olganda, kredit tashkilotlari mablag'lari hajmining sezilarli o'sishi bank resurs bazasi diversifikatsiyasi kuchayganini va jalb qilingan mablag'lardan foydalanish imkoniyatlari kengayganini anglatadi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, 2020–2024-yillar davomida raqamli banklar – xususan, "TBC Bank" AJ va "ANOR BANK" AJ resurs bazasi jadal sur'atlarda kengayib, majburiyatlar tarkibida mijozlardan jalb qilingan depozit mablag'lari yetakchi manba sifatida shakllangan. Shu bilan birga, so'nggi yillarda banklararo mablag'lar, xalqaro moliya institutlari kreditlari hamda chiqarilgan qarz majburiyatlari ulushining ortishi banklar resurs bazasini diversifikatsiya qilish jarayoni faollashganini ko'rsatadi. Ayniqsa, 2023–2024-yillarda jalb qilingan boshqa qarz mablag'lari va kredit tashkilotlari resurslarining keskin o'sishi raqamli banklarning kreditlash hajmini kengaytirish va likvidlikni ta'minlash maqsadida tashqi moliyaviy manbalardan faol foydalanayotganini anglatadi. Biroq majburiyatlar tarkibida qisqa muddatli depozitlar va banklararo resurslar ulushining ortib borishi likvidlik tavakkalchiligi va resurslar barqarorligi bilan bog'liq

muammolarni yuzaga keltirishi mumkin. Shu bois, raqamli banklar faoliyatida jalb qilingan mablag'lar daromadlilikini oshirish, uzoq muddatli va barqaror resurslar ulushini kengaytirish hamda resurs bazasi diversifikatsiyasini muvozanatli yo'lga qo'yish banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda, olib borilgan tahlillar natijalari raqamli banklar – xususan, "TBC Bank" AJ va "ANOR BANK" AJ faoliyatida jalb qilingan mablag'lar hajmi so'nggi yillarda keskin oshib, banklar resurs bazasining asosiy manbai sifatida mijozlar depozitlari ustuvor ahamiyat kasb etayotganini ko'rsatdi. Shu bilan birga, banklararo mablag'lar, xalqaro moliya institutlari kreditlari hamda boshqa qarz resurslarining ortib borishi resurs bazasi diversifikatsiyasi jarayonining faollashganini bildiradi. Biroq jalb qilingan mablag'lar tarkibida qisqa muddatli resurslar ulushining yuqoriligi va tashqi qarz manbalariga qaramlikning ortishi likvidlik barqarorligi hamda resurslar daromadlilikini ta'minlashda muayyan tavakkalchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Shundan kelib chiqib, raqamli banklar faoliyatida uzoq muddatli va arzon resurslarni jalb etish, depozitlar tarkibini diversifikatsiya qilish, jalb qilingan mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish hamda risklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va resurslar daromadlilikini oshirishning muhim omili sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. McKinsey & Company. Global Banking Annual Review 2024. <https://www.mckinsey.com>
2. The Asian Banker. World's top digital banks profitability report. – 2025. <https://www.theasianbanker.com>
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Tijorat banklarining kredit va depozitlari bo'yicha statistik ma'lumotlar. <https://cbu.uz>
4. Mishkin F.S. The Economics of Money, Banking and Financial Markets. – London: Pearson Education, 2022. – 680 p.

5. Rose P.S., Hudgins S.C. *Bank Management and Financial Services*. – New York: McGraw-Hill Education, 2021. – 720 p.
6. Levine R. *Financial Intermediation and Growth: Theory and Evidence* // *Journal of Economic Literature*. – 2020. – Vol. 58(3). – p. 45–89.
7. Boston Consulting Group. *Global Digital Banking Report*. – 2024. <https://www.bcg.com>
8. Abdullayeva Sh.Z. *Bank menejmenti*. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2023. – 312 b.
9. Jo'rayev N. *Tijorat banklari resurs bazasini boshqarish*. – Toshkent: Moliya, 2022. – 256 b.
10. <https://tbcbank.uz/uz/documents/shareholder/> - "TBC Bank" AJning ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.
11. <https://anorbank.uz/uz/about/investors/audit-report/> - "Anor Bank" AJning ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.